



---

OYBEKNING “QUTLUG’ QON” ROMANIDA TO’YGA OID URF-  
ODATLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13380609>

**To’rayeva Iroda Sheramatovna**

*QarshiDU mustaqil tadqiqotchisi*

**ANNOTATSIYA**

Oybek “Qutlug’ qon” romanida turli xil etnografik folklorizmlardan foydalangan. Ayniqsa, to’y tasviri yorqin ifodalangan. Asarda tartib bilan bo’layotgan urf-odatlar: “Soch silash”, “Oynaga boqish”, “Tug’di-tug’di” va boshqa udumlar mahorat bilan aks ettirilgan.

**Kalit so’zlar**

Arvoh oshi, shariat to’yi, mavlud to’yi, to’y boshilar, ezibichki, nikoh to’y, ziyofat, fotiha to’y.

Ilk romanlardan yana biri – Oybekning “Qutlug’ qon” romani. Unda yanada turfa xil etnografik folklorizmlarga o’rin ajratilgan. Shulardan biri “Arvoh oshi” udumidir. Ammo romanda eng ko’p to’y bilan bog’liq tasvirlarga joy berilgan. Aytaylik, romanda shariatga qarab, mavlud to’yi qilish udumi, ilgari ba’zilar o’g’lini mavlud to’yi bilan kesgani haqida so’z boradi. Bu to’y uchun yigirma-o’ttiz odam chaqirilib, mavlud o’qilgan. Uni “shariat to’yi” deb atashgan.

“Qutlug’ qon” romanida jadidlar ko’targan katta masala: boy-kambag’allarning bir-biriga bas qilib dabdabali to’y qilishga urinishi, natijada isrofgarchilikka yo’l qo’yilishi, ayniqsa, qashshoq oilaning qarzga botib, kasodga uchrashi, bunday qilgandan ko’ra, o’sha to’y xarajatini foydali ishlarga – el-u yurt iqtisodiyotini ko’tarishga yoki ta’limga sarflashga undash g’oyasi bilan bog’lanadi. Shundan kelib chiqib, adib Oybek o’z asaridagi personaj Hakimboyvachcha tilidan to’y haqida aytilgan quyidagi so’zlarni keltiradi: “Shariatda isrofgarchilik buyurilmagan, deb eshitamiz”. Salimboyvachcha esa ulamolar to’y-hashamlarda bo’ladigan isrofgarchilikni man qilmaganini, o’zlari to’y-ma-to’y yurishni, yarqiroq choponlar kiyishni yaxshi ko’rishlarini aytadi. Eng muhimi, asarda “Boylar to’ylarga sarf qiladigan pulni savdoga ishlatsin, teatr ishlariga bersin” degan fikr yoshlar tilidan keltirilgan.

Kuyov tomondan “to’y kelish” tasviri ham bu asarning qiziqarli o’rinlaridan biridir. Bu tasvir Nurining to’yi bilan bog’lab keltirilgan. Bunda qiy-chuv bilan to’da-to’da xotinlar – kelinlar, juvonlar, kampirlar aralash-quralash bo’lib, Mirzakarimboyning dang’illama darvozasiga kirib kelishi, aksar xotinlarning oldi-



orqasi to'la, katta-kichik, yasangan-tusangan, ukpar taqqan bolalar. Patnislarda, tog'aralarda, savatlarda kulcha, qovirma chuchvara, varaqi, qatlama va boshqa har nav meva-chevalar... borligi, chaqqonoqlar (romanda bu ishni Yormat qiladi) "o'taveringlar, kiraveringlar, barakalla!" deb, to'y keltirgan xotinlarning katta tugunlarini qo'llaridai, boshlaridan olib, ichkariga kiritishga yordamlashishi alohida qalamga olingan.<sup>8</sup>

To'y bolalar bilan yanada qiziq. Shuning uchun bolajon o'zbek xalqi to'y marosimlari bolasiz o'tmaydi. Mana shuni nazarda tutib adib Oybek o'z asarida bolalarning to'yga ishtirokini alohida tasvirlagan. Ularning "to'y keldi, to'y keldi" deb baqirib-chaqirib yugurishiga urg'u berib o'tgan.

Nuriga xaridor bo'lgan kuyov boy bo'lgani uchun to'yga kuyov tomonidan o'n besh arava yuk yuboriladi. Har bir aravada boshqa-boshqa mollar va buyumlar... Arava-arava un, guruch, qop-qop bodom, pista, kajavalarda holvalar, qirq-ellik katta-kichik yashikda har xil mevalar...

Bu to'kinlikni ko'rgan, undan zavqlangan mahallaning ba'zi bir o'spirinlari "To'ychilik. Og'zimiz chuchib qolsin!" deb, pichoq bilan qopni yo yashikni teshib, cho'ntaklariga qo'rqa-pisa meva solardilar.

Odatimiz bo'yicha to'y keltirganlarning yuziga un surtiladi. Adib mana shu jarayondagi mazkur detalni ham roman syujetiga e'tibor bilan kiritgani uning badiiy mahoratidan darak beradi: "Bu yerda qiyg'os-to'polon bilan aravakashlarning yuzlariga un sepildi. Aravakashlar boshlarini unga tiqqanday yo tegirmonchiday oqardilar".

Shundan so'ng uzoq-yaqindan to'yga aytilganlarni kutib olish tasviriga diqqat qaratilgan: "Eshik oldiga, ko'chaning ikki yuziga qator qo'yilgan skameykalarda Mirzakarimboy, mahallaning imomi, boylari, boyvachchalari ularni kutib oladilar". Ularning "to'y boshilar" tomonidan muloyim muomala bilan qarshi olinishi ta'kidlangan. To'y boshilar har toifani o'z vaqtida, o'z yeriga o'tqazish, o'ziga yarasha kutish vazifasini bajaradilar. To'yga kelgan zodagonlarning ketar chog'ida har biriga katta tugun berilgan.

Romanda Nurining to'ydan oldin domlaga borib o'zini o'qitishi, uning "o'tkir nafasi" tekkan bir siqim choyni, ro'molchaga tugilgan qandni, go'shangada kiyilajak yupqa oq ko'ylakni, bir parcha qog'ozning yuziga qora, quyuq siyoh bilan yozilgan "ezibichki" olib kelishi ham ko'rsatilgan.

Asarda yana qizning sepi uchun atab qilingan to'qqiz duxoba va to'qqiz har xil shohi ko'rpalarining yerdan shipga qadarli taxlangani, oppoq par yostiqlar, kuyovnikidan kelgan sarpolar, ularning xotinlar orasida namoyish etilishi, bu sarpolarning ovozi xotinlar orqali barchaga tarqalgani, so'ng ushbu mollarning

<sup>8</sup> Ойбек. Кутлуғ қон. Роман. Асарлар. Ўн томлик. Учинчи том. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б.43.



hammasi sandiqlarga joylangani haqida ham soʻz yuritilgan. Bularning qatorida kelin uchun kuyov tomonidan taqdim qilingan taqinchoqlar tilga olinadi: ingichka, uzun zanjirli, kichkina, lekin gʻoyat chiroyli, moʻjaz qopqogʻida brilliantlar yongan oltin zanjirli oltin soat. Ammo Nuri uchun “savodsizga kitob hech nima demaganday, soat unga hech nima koʻrsatmaydi. Chunki u soatni tushunmaydi.

Qiz uzatish toʻylarining yana bir odati qizning qabul etilgan tashqi odob va nazokatga muvofiq yuzida qaygʻulanish, ota yurtidan ketayotgani uchun oʻksinish hislarini berishidir. Nuri esa bu rolni juda qiyinlik bilan bajaradi.

Romanda Nurining nikoh toʻyi misolida bu toʻy turining ancha tantanali oʻtishi aks ettirilgan. Bundan oldin kuyovning kelishi tasvirlangan. Kuyov katta olomon bilan toʻrt karnay, olti surnayning shovqini bilan keladi. Adib aytganidek, odatda, dongga oʻch boyvachcha kuyovlar nikohga, odatda, qoʻsh karnay, qoʻsh surnay bilan kelishadi. Demak, Nurining kuyovi yanada dongga oʻchdir. Shuning uchun yozuvchi bu toʻyni taʼriflash uchun “xon taqlid toʻy” birikmasini ishlatadi.

Kuyov, ahli rasta olifta boyvachchalar orasida odatga muvofiq oʻzini yashirib, dangʻillama darvoza tomon yuradi. Boyning katta hovlisida, mutlaq sukunat ichida, qari imom nikoh oʻqiydi. Kuyov boshidan moʻl-moʻl sochiqlar sochiladi. Keyin kuyov tomon ajoyib soʻzanalar, qimmatbaho buyumlar bilan bezatilgan xonalarga taklif etiladi. Ziyofat, odatdagicha, tez tugaydi. Bu oʻrinda “ziyofat odatdagidan tez tugadi” degan izohda keltirilgan “ziyofat” soʻzi kuyovlarga bagʻishlab oʻtkaziladigan toʻqqiz tovoq udumidir. Bunda kuyovga uzun va keng zarbof toʻn kiydirilib, boshiga oltin jigʻa qoʻndirilgan katta salla oʻralgan. Bu kuyovning koʻrinishi boʻlsa, kelinning koʻrinish ham chizib koʻrsatilgan: “Uning egnida qadimona tikilgan keng, uzun, oq shohi koʻylak, boshida baytlar yozilgan katta “sanama” roʻmol, oyoqlarida ipakdek guldor maxsi”. Shu tasvir qatida kelining isiriq solish udumi ham tasvirlangan. Kelin Nurining onasi Lutfiniso yomon koʻzdan saqlasin uchun, isiriq tutattirar, goh qizini quchib yigʻlar, goh kulib, qizlarni oʻyinga, shoʻxlikka undar edi.

Romanda kelinni kuyovnikiga uzatish jarayoni yanada boshqacha tasvirlangan. Bu vaqtda Nuri alohida xonada oʻz oʻrtoqlari bilan oʻtirar edi. Ketish paytida Nuri pochapoʻstinni kiyib, vazmin, zarbof paranjini yopinib, hovliga chiqqanda, katta hovli xotinlar bilan qaynar edi. Unga otasi Mirzakarimboy hovli oʻrtasida katta hayajon bilan, titroq tovush bilan fotiha beradi.

Maʼlumki, chiqayotgan qiz boshidan palak tutadilar. Romanda bu holat ham qalamga olingan: “Nurini ayollar oʻrtaga olib boshlariga katta qimmatbaho palak tutdilar”. Shuningdek, oʻzbekona odatga koʻra qizlar kuyovnikiga yor-yor bilan uzatadilar. Yallachilar chirmandalarni uradilar. Buni eʼtiborga olib yozuvchi “Yuzlarcha xotinlarning yor-yor” qoʻshigʻi yangradi” degan izohni berishni unutmaydi. Oʻsha vaqtlarda qizlar kuyovnikiga aravada uzatilgan. Nurining onasi



Lutfinisa esa orzu-havas berilib qizini qo'sh arg'umoqli izvoshtagda yubormoqchi bo'ladi. Shunda Mirzakarimboy "Bas! Manmanlik - xudo urganlik eski taomildan qolma... boylar quturib ketdi" deydi.

To'g'risi, hozir ham qizlar turli rusumdagi avtoulavlardan kuyovnikiga uzatiladi. Bunda ham ota-onalarning orzu-havaslari tufayli Lutfiniso kabi dabdababozlikka o'chlar bor. Kelingga xotin-qizlar yetti arava bo'lib ergashadi.

Aslida, kelin ketayotganda onasi bormaydi, lekin Lutfinisa qizi va kelinlar o'tirgan eng oldinga soyabonli arava chiqib oladi.

"Arava poyga"ning gumburi, aravakashlarning qiyqirig'i, ayollarning "yor-yori" bilan to'y karvoni borarkan, bolalar, o'spirinlar yugurib chiqib, yo'lga arqon soladilar. Xalq tilida bu - "baqansoldi" deyiladi. Lutfiniso bo'g'chadan ikki do'ppi olib, besh so'm pul bilan yo'l to'suvchilarga uzatadi. Ular "To'y ustiga to'y ko'ring, xola!" deb, uni olqishlab, yo'lni bo'shatadilar. Nariroqda choyxonadan yigitlar yugurib chiqib, belbog'laridan nari-beri arqon yasab, ular ham yo'lni kesadilar. Ularga Lutfiniso iyib, ikki do'ppi va o'n so'm pul uzatadi. Kuyovning mahallasidagi bolalar ikki yerda yo'l tutishga tirishadilar, lekin bolalar eplay olmaydi

To'y karvoni manzilga eson-omon yetib kelgach, aravakashlar xotinlarni yerga tushirib, kelinga atoqlik mollar va har nav jihozlarni tashishga tutinadilar. Bu xalq tiliga "kelinning sepi" deyiladi. Kelinni kuyovning hovlisi o'rtasida yoqilgan katta gulxan bilan qarshi oladilar. Qiz tomon gulxan oldida to'xtaydi. Qiychuv, chag'irchug'ur quloqni kar qiladi. Qizdirilgan chirmandalar havoni yangratadi. Dong chiqargan yallachilar sho'x, jonli qo'shiq kuylashadi. Gulxan tevaragida raqs boshlanadi. Kelin palak ostida, yosh ayollar bilan qurshalgan holda turadi. Shu vaqt mahallaning shumtaka erkak bolalari "kelin chimchilash" degan eski odatni qilishadi. Unga ko'ra, tirrancha bolalar xotinlar orasiga sekingina suquladilar-da, kelinni chimchilab qochadilar. Ko'pincha bunda bolalar yanglishib, kelin deb boshqa ayollarni chimchilaydilar. Ayollar esa chimchilovchilarni qarg'aydilar. Ushlab olsalar, uradilar...

Hovlidagi bunday hangomalar tugagach, kelinni bir to'da xotinlar palak ostida, kattagina xonaga kiritadilar. Qiz tomon, odatga muvofiq, xonaning poygagini band etsa, kuyov tomon ayollari uyning to'rida, chimildiq-chodir yonida g'uj turishadi. Yalpi shovqin bilan "tortishmachoq" boshlanaadi: qiz tomonda gubchakdek yum-yumaloq xotin belini belbog' bilan mahkam bog'lab, o'rtaga tushadi. Kuyov tomonda oriq, daroz, chayir bir xotin bel bog'laydi. O'zgalar - yosh-qari hammasi shu ikki ayolning belbog'iga, etaklariga yopishadi. "Tortishmachoq" polvonlari yeng shimarib, bir-birlariga panja solarkan, o'zga ayollar umumiy, kuchli "ha-huv" bilan tortishga kirishadilar. Nogahon qo'llar uzilganda, tortishuvchilar orqaga tashlanib, bir-birlarining ustlariga yumalanadilar.



Suron zo'rayadi, yana turib hansirab tortishuvni davom ettiradilar. Kuch sinovda har ikki tomon astoydil kurashadi. Nihoyat, qiz tomon bo'sh kelmasa ham, umuman erkakning hurmati va uning ayoldan ustunligini tasdiqlash uchun picha yon beradi.

Shundan so'ng kuyovning kelinni chimildiqqa olib kirish tasviri keltirilgan. Bunda qariyb butun xonani qoplovchi palakni ayollar boshlari uzra baland ko'taradilar. Oppoq chimildiq ichidan uzun zarbof to'nni yopinib, kuyov chiqadi. Dallol kampir uni yetaklab palak ostidan qizga keltiradi. Kuyov kelinning o'ng qo'lini ushlaydi, keyin quchoqlab yerdan uzadi va qoqila-suqula chimildiq tomon ko'tarib ketadi-da, duxoba to'shakka sekingina o'tqazadi, o'zi ham shunda chordona quradi. Kelin katta oq ro'molini yuziga tushirib, boshini quyi solgan holda, noz qilgandek, sal burilib o'tiradi. Kuyov bir qo'li bilan kelinning belidan quchib, ikkinchi qo'li bilan ro'molini ko'tarib qo'yadi.

Xullas, asarda yozuvchi alohida ta'kidlab o'tganidek "Urf-odat va an'ana, go'yo jadvalga yozilgandek ma'lum tartib bilan davom etadi. "Soch silash", "Oynaga boqish", "Tug'di-tug'di" va hokazo qariyb tongga qadar ermak bo'ladi.

Nahorlikdan so'ng hovlida yana bazm boshlanadi. Yallachilar davrani keng olib, uzoq o'ynaydilar. Puldor xotinlar bir-birlaridan qolmaslikka tirishib, pul o'giradilar. O'yindan keyin kayvoni kampir kelinni "salomga" olib chiqadi. Kelin banoras paranjida, yuzi qat-qat shoyi ro'mollar bilan yopiq holda, xonaning ostonasi yonida sal egilib turadi. Kampir bir qo'lini kelinining boshiga yengil qo'yib, baland qalin tovush bilan, xuddi kuylagandek, so'zlarni ohangdor cho'zib qichqirib:

"Assalom, assalom. Muhammad Mustafoga salom.

Bibi Fotimamga salom,

Choryorlarga salom, aziz-avliyolarga salom.

Qaynana-qaynatalarga salom.

Og'a-inilarga salom..." - deydi. Kimning nomi aytilsa, u kelib kelinga ko'rmana berib ketadi. "Qutlug' qon" romanida Nurining kaynatasi xasta bo'lgani uchun uning o'rniga kuyovning akasi kelib, yap-yangi, uzun qog'oz aqchani kelinning boshiga qo'yib tashqariga ildam chiqib ketadi. Kampir pulni hayajon bilan kissasiga uradi-da, Nurining yuzini ochadi. Kelinning yuzlik ro'mollari "tabarruk" deya xotinlar o'rtasida talash bo'ladi. Nurining boshidan qaynanasi sochiqlar sochadi. Bolalar, kattalar chuvvos bilan ur-yiqit bilan terishadi. Keyin Nurini kampir yana xona ichiga yetaklaydi. Shundan so'ng hovli sahniga, ayvonlarga "sep" yoyiladi.

Ba'zi kishilar to'yniki "tabarruk" deb, to'ydan bolasiga atab nimadir olib keladi. Shuning uchun O'roz Yo'lchiga: "To'ydan bolaga atab bir kap shirinlik ham



keltirmabsan” desa, Yo’lchi: “To’yi qursin. Ertaga shahardan holva sotib olib chiqaman bunga” deydi.<sup>9</sup>

Romanda “Fotiha” – go’yo yarim nikoh. U, ikki tomonning kelajak hayotiga taqdir muhrini bosadi. “Fotiha”dan so’ng har ikki tomon aynish, taraddud huquqidan ko’pincha mahrum bo’ladi. Qudalar o’rtasida ro’y beradigan anglashilmovchiliklar, janjallar aksar vaqt muzokara va murosa yo’li bilan hal qilinadi. Otalar-onalar bo’lajak qudalarining, kelinlarining, kuyovlarining har qanday nuqsonini op-ochiq ko’rishlariga qaramay, “fotiha buzilmasligi” uchun, u nuqsonlardan ko’z yumadilar!” deb keltirilgan tavsif ham alohida e’tiborni tortadi.<sup>10</sup>

Ertalab, odat bo’yicha, Nuri to’r ro’mol yopinib beshikdagi boladan to keksalarga qadar hammaga salom qiladi.

Nurining qaynakasi Abdullaboy rus xotin olar ekan, u mahalla imomi huzurida “kalimay shahodat”ni aytirib, nikoh o’qittirib oladi. Otasi Najmiddinboy ham faqat shu shart bilangina bunday favqulodda ishga ruxsat bergan edi. Mariyaga darrov boshdan-oyoq musulmoncha kiyim kiydiradilar, namozni, har xil duolarni va qur’ondan bir necha surani yod o’qishga o’rgatadilar. Yolg’iz o’zini hech yerga yubormaydilar – hatto yo’lakka, ko’cha eshikka ham chiqarmaydilar. Shunday qilib, bir necha yil ichida u butunlay “musulmon” xotin bo’lib qoladi. Besh vaqt namozni kanda qilmasdan o’qiydi, ixlos bilan ro’za tutadi. Biron ish qilarkan, yo ovqat ichmoqqa boshlarkan, “bismillo”ni sira unutmaydi. Endi u duxoba paranjiga o’ralib, uzun chachvonni yuziga tutib, savat-savat kulchalar, barkashlarda oshlar, sovg’a-salom bilan, butun qoidaga muvofiq to’ylarga, azalarga, tug’ruqlarga borib keladi.

To’y kunlari ichkarida samovarni ko’pincha erkak kishi kaynatishi eskidan bir taomil bo’lib qolgan. Eng mutaassib, eng rashkli erkaklar ham buni din va diyonatga zararli deb qaramaydilar.

Xullas, to’ylar har xil bo’ladi. Masalan, “To’y katta bo’lmadi, – davom etdi Gulandom, – ham juda sovuq to’y bo’ldi. Lekin dadam besh yuz so’m naqd pul oldi. To’yimdan ikki hafta o’tar-o’tmas bir, kampirga uylandi. Ukalarimning kir-chirini yuvib, bag’rida olib o’tirsin, deb bu ishga men o’zim bosh qo’shdim.<sup>11</sup> Biroq Gulandomning eri bola-chaqali odamligi, yanglishib, yo’ldan ozib unga uylangan ekanligini aytib, “niqohimdan chiqdingiz, meni kutmang” deb uning javobini beradi.

<sup>9</sup> Ойбек. ҚУТЛУҒ ҚОН. – Б.64.

<sup>10</sup> Ойбек. ҚУТЛУҒ ҚОН. – Б.63.

<sup>11</sup> Ойбек. ҚУТЛУҒ ҚОН. – Б.95.



“Qutlug’ qon”da xotini o’lgan otani uylantirish mavzusi ham keltirilgan. Bu to’yga Olimxon to’y boshi bo’lmoqchi bo’lib, Mirzakarimboyni uylantirish masalasini ko’taradi.

Yormat xotini Gulsumga “yig’lama, kasofat; yig’i bilan boshlangan to’yning oqibati yomon bo’ladi” deydi.

Falonchining xotini o’lgan ekan, go’ri sira qazilmabdi. Go’rkov ketmon ursa, yer naq toshday, ketmon yuzini qayiribdi... Bilasanmi, u xotin tirikligida nuqul “burma ko’ylak” kiyar ekan, mana jazosi! Falonchining kelini to’rt oyoqli bola tug’ibdi, peshonasida ham bir ko’z bor emish, yo qudratingdan o’rgilay! Falonchi odam yong’oq tagida uxlab yotgan ekan, ajina chalib ketibdi. Falon yurtida odamlar ya’juj-ma’jujni ko’rishibdi. Oxir zamon yaqinga o’xshaydi, qizim”.

Xalq orasida keng tarqalgan biror hodisaga nisbatan “Ko’pga kelgan to’y” birikmasi ishlatiladi. “Ota, – dedi Salim jerkib, – bu narsa ko’pga kelgan to’y. O’g’lingiz nihoyati bir necha oy ishlab qaytadi. Nimasiga qayg’urasiz? Uzoq yurtlarni ko’rib keladi. Siz duo qilib o’tiravering. Man nima qila olaman? Hammamiz oq podshohga fuqaromiz, uning oliy farmoniga so’zsiz bo’ysunishimiz kerak”.<sup>12</sup>

Demak, bu o’rinda to’y so’zi o’z va ko’chma ma’no anglatib kelishi yanada ayotlashmoqda. Yuqoridagi misolda u “mardikorlik”ni tavsiflash uchun ishlatilgan.

Zaynabning to’yi yaqinlashgan vaqtda sevikli kuyov yigit – ikki kungina xastalanib, o’lgan. Zaynabning otasi qalin pulini yeb qo’ygani uchun, endi Zaynabni haligi yigitning ukasiga – Zaynabdan ancha kichkina va oyog’i oqma bir bolaga berishga majbur bo’lib, kuyovning bir oz ulg’ayishini kutar, qizni saqlar edi.<sup>13</sup>

Kampir kuyovni xo’p tanlab, ota-onasini surishtirib, kasb-korini bilib, undan keyin to’yga javob berish kerakligini ta’kid qiladi.

Xullas, ilk romanlarda keltirilgan o’zbek xalqi maishiy turmushi bilan bog’liq tasvirlar, ur-odatlar ulardan qaysilari haligacha saqlanib kelayotgani, qaysinisidir iste’mol dan chiqib ketgani yoki qaysi birining mazmunida yangi turmushga xos o’zgarishlar aks etayotganini bilib olish, umuman, ular taraqqiyotidagi transformatsion jarayonlarni uqish uchun xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Oybek. Qutlug’ qon. Roman. Asarlar. O’n tomlik. Uchinchi tom. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – B.43.

<sup>12</sup> Oybek. Qutlug’ qon. – B.205.

<sup>13</sup> Oybek. Qutlug’ qon. – B.187..



2. Oybek. Qutlug' qon. – B.64
- 3.Oybek. Qutlug' qon. – B.63.
- 4.Oybek. Qutlug' qon. – B.95.
- 5.Oybek. Qutlug' qon. – B.205.
- 6.Izoh.uz-O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014-2024.